

"O'zkimyosanoat" AJ tarmoq koxonalarida ishlab chiqarishga ilg'or standartlar joriy etiladi

// 12 November 2024 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-tarmoq-koxonalarida-ishlab-chiqarishga-ilg>



ISHLAB CHIQRISHDA ILG'OR STANDARTLAR JORIY ETILADI



uzkimyosanoat.uz



t.me/uzkimyosanoat



uzkimyosanoat



uzkimyosanoat.uz



[Uzkimyosanoat](https://uzkimyosanoat)



uzkimyosanoat



Sanoatni rivojlantirish, mahsulotlar sifatini oshirish, jahon bozorlariga chiqish — ko'p jihatdan xalqaro standartlar va texnik reglamentlarni jadal joriy etishga bog'liq. "O'zkimyosanoat" AJda ham bu jarayon kun tartibidagi muhim yo'nalishlardan biri hisobalanadi.

Xususan, tarmoq korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati, raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro bozorlarda o'z o'rnini topishga ko'maklashish maqsadida muntazam ravishda xalqaro va davlatlararo standartlarni tahlil qilish va ularning texnik parametrlarini o'rganish va amaliyotga joriy etib kelinmoqda.

"O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalarida 2019-2021-yillarda ro'yxatga olingan tashkilot standartlari o'rniga 173 ta milliy standartni ishlab chiqish belgilangan bo'lib, bu borada bugungi kunga qadar STQ-20 "Kimyo sanoati" texnik qo'mitasi tomonidan qator ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, bir nech turdagi standartlarni unifikatsiya qilish orqali 55 ta (O'zMSt) O'zbekiston milliy standarti tasdiqlandi, 28 ta Tashkilot standartlari o'rnini bosuvchi davlatlararo GOST standartlari mavjudligi aniqlandi. Shu bilan birga 90 ta Tashkilot standarti bugungi kunda o'z ahamiyatini yo'qotgan deb topildi.

Hozirda qabul qilingan 122 ta xalqaro ISO standartlarini korxonalar laboratoriyalariga joriy qilish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Umuman yil yakuniga qadar umumiy hisobda 200 ga yaqin ISO standartlari joriy qilinishi rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, ayni paytda ishlab chiqarishda, esport va import jarayonlarida mahalliy va ilg'or xorijiy standartlarni ishlab chiqish va joriy etish yuzasidan amaliy ishlar davom ettirilmoqda.

Bu o'z navbatida nafaqat ichki bozorga sifatli kimyo mahsulotlari yetkazib berish balki, tashqi savdoni ham rag'batlantirish imkonini beradi

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati